



O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASI BO'YICHA DARSLIKDA BERILGAN MATNLAR TAHLILI

Iskandarova Zarina Zokirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarga o'qib tushunish va matnlar bilan ishlash ko'nikmasini shakillantirishga oid mashqlar orqali o'qitish va metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'qib tushunish, matn tahlili, o'quvchilarning faolligi, metod.*

O'qib tushunish ko'nikmasi bugungi kunda dolzarb masaladir, o'quvchilarda bu ko'nikmani oshirish uchun turli tadqiqod ishlari olib borilmoqda.

O'qish savodxonligini oshirish maqsadida o'ziga xos yondashuv va tamoyillar ishlab chiqilib o'quvchilarga tadbiq etilmoqda.

Iroda Azimova. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Maqola Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. 215–224.

“O'qib tushunish” bu barcha o'qish faoliyatida o'quvchining avvalgi mavjud bo'lgan bilimi asosida ma'lumotlarni qaysidir darajada umumlashtirishni anglatadi. Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy



bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo‘ladi.

O‘qib tushunish ko‘nikmasining samarali taraflaridan biri o‘quvchilar ma’lum bir matnni shunchaki o‘qib chiqishida emas, balki o‘qish jarayonida matnni chuqur tahlil qilishi, muhim fikrlarni ajratib olishi, savollar tug‘ilishi va xulosa qilishida yordam beradi.

K.Mavlonova. O‘quvchilarda matnni o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 149–154.

K.Mavlonova o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni ma’lum ma’noda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv asosida olib borilishi kerakligi bo‘yicha fikr bildirib, “Ona tili” va “O‘zbek tili” darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati o‘quvchini o‘ylash, izlash va tahlil qilishga emas, balki lisoniy hodisani mexanik tarzda aniqlashga qaratilganligini aytadi, o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish uchun tahliliy faoliyat alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Tahliliy faoliyat davomida matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini egallashga qaratilgan quyidagi tartibdagi metodik ishlarni amalga oshirish mumkinligini tavsiya qiladilar

Oldingi darsliklarda darsga oid qoida va turli matnli mashqlar berilgan va o‘quvchilar mashqlarni ko‘chirib topshiriq bajargan. Hozirgi yangi darsliklarda to‘rtta ko‘nikmalarga chuqur e’tibor qaratildi. Shular jumlasidan o‘qib tushunish ko‘nikmasi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni, chuqur anglashni til boyligini oshishi va yozma nutqni ham rivojlantirishga yordam beradi. O‘qib tushunishda yangi so‘zlar, iboralar orqali lug‘at boyligi kengayadi, matn mazmunini anglab to‘g‘ri gap tuzishiga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar o‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon qilishni o‘rganadi.



7-sinf ona tili darsligida berilgan Voha va Vodiy: Farqi nimada? [1; 162-b].

“Voha” so‘zi arab tilidan kirgan, o‘zbek tilida cho‘l va chalacho‘llarda obod qilingan yerni anglatadi. “Vodiy” so‘zi ham arab tilidan kirgan, o‘zbek tilida daryo bo‘ylab cho‘zilgan yoki tog‘lar orasidagi keng tekislik; ekin ekiladigan, obod yer; mamlakat, yurtning bir bo‘lagi; diyor ma’nolariga ega. Ko‘chma ma’noda biror narsa uchun xos bo‘lgan joy, makonni anglatadi. Hudud nomlari bilan ishlatganda voha va vodiyning bitta aniq, keskin farqi bor: voha –

cho‘l va chalacho‘l hududda obod qilingan joy, vodiylar esa daryo yoqasi bo‘ylab joylashgan yoki tog‘lar orasidagi tekislik joy: Zarafshon vohasi. Xorazm vohasi. Toshkent vohasi. Buxoro vohasi. Farg‘ona vodiysi. Surxon-Sherobod vodiysi. Qashqadaryo vodiysi (viloyatdagi vodiylar, Zarafshon tizmasining janubiy-g‘arbiy tarmoqlari oralig‘ida). Hisor vodiysi. Voha va vodiylar tushunchasi viloyat tushunchasidan farqlanadi. Voha va vodiylar bir viloyat hududidan katta bo‘lishi yoki bir viloyat ichida bir necha voha yoki vodiylar joylashishi ham mumkin. Milliy ensiklopediyaga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida bir nechta katta vohalar bor.

Frayer metodi

1. O‘quvchilar quyidagi to‘rt qismdan iborat jadvalni to‘ldiradilar:

Ushbu metodimiz o‘quvchilarda anglash, farqlash, mantiqiy bog‘lash va fikr bildirish darajalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarda tushunishga asoslangan o‘qish malakasini shakllantiradi.

Tushuncha	Tavsifi	Misollar	Nomunosib misollar
Voha	Cho‘l hududda obod qilingan yer	Buxoro vohasi, Xorazm vohasi	Tog‘lar orasidagi vodiylar
Vodiy	Daryo bo‘yi yoki tog‘ orasidagi tekislik	Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo vodiysi	Sahrodagi vohalar

2. Har bir ustun ustida muhokama olib boriladi:



“Tavsifi” – tushunchaning aniq ta’rifi

“Misollar” – matndan yoki umumiy bilimdan olingan

“Nomunosib misollar” – tushunchani noto‘g‘ri tushunmaslik uchun

Metodning afzalliklari:

O‘quvchilar tushunchalarni chuqur tahlil qiladi

Qiyoslash, mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmasi shakllanadi

Yana bir metod qo‘llashimiz mumkin. Misol uchun

Venn Diagrammasi metodi

Ushbu metodda o‘qish orqali o‘xshash va farqli tomonlarini grafik ko‘rinishda tahlil qilish bo‘lib, o‘qib tushunishni rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi. O‘quvchilar ikki hududni tahlil qilib o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi bu mantiqiy fikrlashga undaydi.

Qo‘llash usuli:

1. Ikki doira chiziladi:

Chap tomondagisi: Voha

O‘ng tomondagisi: Vodiy

Ikkisi kesishgan joy – umumiy jihatlar

2. O‘quvchilar quyidagicha to‘ldiradilar:

Faqat vohaga xos: Cho‘l hududida obod qilingan yer

Faqat vodiysiga xos: Daryo bo‘ylab yoki tog‘lar orasidagi tekislik

Ikkalasiga xos: Obod yerlar, ekin ekiladi, hudud nomi sifatida qo‘llanadi

Foydali tomonlari:

Tushunchalarni aniqlik bilan solishtirishga yordam beradi

Matndagi asosiy farqlovchi belgilarni ajratib ko‘rsatadi

O‘quvchilarda mantiqiy va analitik fikrlash rivojlanadi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iroda Azimova. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Maqola Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2020. 215–224.
2. K.Mavlonova. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 149–154.
3. 7-sinf ona tili darslik.- T.: 2022.- 162-b.